

KONSTITUTSIYA –HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT VA FUQOROLIK JAMIYATINING ENG MUHIM MEZONI

Karabayeva Munira Abdullayevna
Jamoat Xavfsizligi Universiteti kafedra
o'qituvchisi, f.-m.f.n., dotsent

Annotatsiya

Konstitutsiya fuqarolarning huquq va erkinliklari kafolatlangan, mamlakatni dunyoga tanitadigan siyosiy hujjat, mustaqillikni ta'minlab bergan davlatning pasporti sifatida tan olinar ekan, u doim o'zligimizni ko'rsatib turadigan oliy qonundir. Bu qonun davlat va jamiyat uchun har doim ustuvor hisoblanadi.

Konstitutsiya eng avvalo, fuqarolik jamiyati huquq va erkinliklari kafolati manbai, har bir xalq va davlatni dunyoga tanitadigan siyosiy mustaqilligini tan olinishida muhim qonuniy asosdir. U doim milliy o'zligimizni ko'rsatib turadigan oliy qonundir. Bu davlat va jamiyat farovonligi hamda taraqqiyoti uchun asosiy ustuvor qonun hisoblanadi.

Kalit so'zkar: O'zbekiston Respublikasi, Konstitutsiya, O'zbekiston fuqarosi, Asosiy Qonun, jamiyat va davlat, Inson huquqlari.

8 dekabr kuni O'zbekistonliklar asosiy bayramlardan biri O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kunini nishonlaydilar. Har bir davlat o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini tanlar ekan, xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladigan eng muhim maqsad va vazifalarini o'zining Konstitutsiyasi – Asosiy Qonunida mustahkamlab oladi.

Konstitutsiya (lotincha “Constitution” – tuzilish, tuzuk) – davlatning Asosiy qonunidir. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi.

O'z xalqining xohish-irodasi, dili va tilidagi ezgu niyatlariga hamohang Konstitutsiyaga ega bo'lgan mamlakat o'zi belgilagan yuksak marralardan hech qachon og'ishmasdan, doimo oldinga qarab boradi. Konstitutsiya bashariyat hayotida ilk bor insonning ozod va erkin yashash, mulkka ega bo'lish, ta'lim olish, mehnat qilish, saylash va saylanish kabi huquqlarini, so'z hamda e'tiqod erkinliklarini oliy qadriyat darajasiga ko'tardi, mustaqilligimizning ilk davrida qabul qilingan Konstitutsiyamiz shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro huquq va majburiyatlar, hamda ularning kafolatlarini aniq-ravshan belgilab berdi. Bosh Qomusimiz, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar,

yurtimiz fuqorolari tengligining kafolatlanishini e'tirof etdi va zamonaviy demokratik jamiyat uchun zamin yaratdi va aynan mana shu sababli Konstitutsiyamizni ehtirom bilan ulug'lashimiz, har tomonlama o'rganishimiz, unga izchil amal qilishimiz, Asosiy qonunimizda mujassam bo'lgan ajdodlarimizning buyuk merosi va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarimiz qalbiga singdirishimiz kerak.

O'tgan yillar davomida mamlakatimizning Asosiy Qonuni vaqt sinovidan muvaffaqiyatli o'tganligini, mamlakatning barqaror rivojlanishi, muhim davlat va jamoatchilik institutlarining shakllanishi uchun sharoitlar yaratilganligini, xalqaro maydonda O'zbekistonning munosib o'rin egallaganligini, konstitutsiyaviy qonunchilikni takomillashtirish hamda sud-huquq tizimini modernizatsiyalash, xalqning tinch va farovon hayoti, fuqorolarning huquq hamda erkinliklari va manfaatlarini kafolati, himoyasi uchun maqbul sharoitlar yaratilganini ko'rsatmoqda. O'zbekiston yangi taraqqiyot yo'lidan olg'a sur'atda olib borilayotgan islohotlar, avvalo, xalqimiz farovonligini yuksaltirishni maqsad qilgan. Asosiy Qonunimizda inson, uning xayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat sifatida belgilab qo'yilgan. Mamlakatimizda xalq bilan muloqotning yangi shakli –Xalq qabulxonalarining tashkil etilganligi fuqorolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishda muhim omil bo'layotganini ta'kidlash joizdir. Bugungi kunda barcha davlat idoralarida murojaatlar bilan ishlash, odamlarni tinglash, ularning muammolarini hal etish birinchi darajadagi masalaga aylangan. Odamlarga adolatga, qonun ustuvorligiga ishonch ortdi. Eng muhimi, yurtdoshlarimizda yon-atrofdagi muammolarga, ijtimoiy jarayonlarga nisbatan daxldorlik tuyg'usi kuchaydi. Bu borada shuni aytib o'tish kerakki, qonunlarning mukammal ishlashi, shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar to'la ro'yobga chiqishi, ya'ni islohotlarning hayotimizda o'z ifodasini topishi uchun fuqorolarda huquqiy ong va madaniyat shakllangan bo'lishi lozim. Konstitutsiya va qonunlarga itoat etish tuyg'usi qaror topgandagina jamiyatimiz o'zgarib, xayotimiz yanada farovon bo'ladi. Qonun ustuvorligini ta'minlash demokratik huquqiy davlatning bosh mezoni ekanligi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ishlab chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning hatti-harakatlari faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo'lishi shartligi belgilab qo'yilgan bo'lib, bu belgilangan tartibda narozatga olingan. Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga erishishda jamoatchilik nazoratidan samarali vosita yo'q. Qonuniylikni qaror toptirish, qonun buzilishiga qarshi kurashish borasida jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari allaqachon uyg'onib bo'lgan. Qonun ustuvorligi – bu davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti – harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo'lishi shart, deganidir. “Konstitutsiya va qonun ustuvorligi-farovon hayot garovidi” degan tushunchalar fuqorolarimizning ongi va qalbida chuqur o'rin egallashi hamda ijtimoiy ehtiyojga aylanishi zarur. Buning uchun qonunlar ijrosini samarali tashkil etish, tizimli

muammolarni oldindan ko'ra bilish, qonun buzilishining salbiy oqibatlariga qarshi kurashish bilan birga, bunday holatni barvaqt bartaraf etishga qaratilgan tizimni shakllantirish, Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga erishishda jamoatchilik nazoratidan samarali foydalanish, ommaviy axborot vositalari qonuniylikni qaror toptirishda chinakam "jamiyat ko'zgusi" ga aylanishi lozim. Qabul qilinayotgan qonunlar olib borilayotgan islohotlarimiz bilan uyg'un bo'lishi talab etiladi. Qanchalik mukammal qonunlar yaratilib, qanday islohotlar o'tkazilmasin, fuqorolarimizning huquqiy bilimi, ongi va madaniyati etarli bo'lmasa, yaxshi natijalarga erishib bo'lmaydi. Jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarni uzluksiz davom ettirish, bu boradagi ko'nikmalarni farzandlar tarbiyasiga singdirish kerakligiga e'tibor qaratilgan. SHu ma'noda, davlatimiz rahbari tomonidan har bir soha va yo'nalish, ta'limning barcha bosqichi uchun huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslangan dasturini amalga oshirish va bunda, eng avvalo, Konstitutsiyani o'rganishga jiddiy yondashish lozimligi, bu boradagi o'quv rejalari va darsliklarni yaratish zarurligi haqidagi g'oyalari muhimdir. Bosh qomusimizda belgilangan insonparvar tamoyillar to'la amalga oshirilmoqda. Xalqimizga xos bo'lgan kechirimlilik va bag'rikenglik fazilatlarini o'zida mujassam etgan mazkur xujjatga binoan jinoiy qilmishiga chin dildan pushaymon bo'lib, tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan mahkumlar afv etilib, bu bag'rikenglik tamoyilini qo'llanilayotganligidan dalolat beradi, xalqimiz orasida mehribonlik, vijdonlilik hamda ishonch hissini qaror topishiga olib keladi. Minglab shaxslarning O'zbekiston fuqoroligiga qabul qilinishi ham insonparvarlikning bir ko'rinishidir. O'zbekiston Respublikasining Asosiy Qonunida mustahkamlab qo'yilgan g'oya va qadriyatlar vaqt sinovidan o'tib, o'zining chinakam qudratini namoyon etmoqda. Bugungi kunimizda oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erishishda, xalqimiz uchun xech kimdan kam bo'lmagan xayot barpo etish, iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirish, eng muhimi, mamlakatimizning rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan joy olishida mustaqil taraqqiyotimiz, ozod va erkin hayotimizning mustahkam poydevori bo'lgan Konstitutsiyamiz beqiyos kuch-qudrat manbai bo'lib xizmat qilaveradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bosh g'oyasi, maqsadi, ruhi – har bir qoidasi Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi, asrlar mobaynida shakllangan demokratik qadriyatlar, milliy davlatchilik, shuningdek, bir necha ming yillardan buyon avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan o'zbekona va sharqona davlatni idora etish hamda xalq bilan bamaslahat siyosat olib borish an'analari o'zida to'la mujassamlashtirgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasidir» deb ta'kidlagan edi. Konstitutsiya – davlatimiz mustaqilligining huquqiy zamini, xalq xohish-irodasining oliy ifodasi sifatida maydonga chiqdi. U eng taraqqiy topgan, rivojlangan davlatlarning konstitutsiyaviy

tajribalariga tayanish bilan birga, tarixda sinalgan umuminsoniy, umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan holda, davlat suvereniteti, xalq hokimiyatchiligi, konstitutsiya va qonunning ustunligi, tashqi siyosat, fuqarolik, shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy huquqlar, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari, fuqarolarning burchlari, jamiyatning iqtisodiy negizlari, jamoat birlashmalari, oila, ommaviy axborot vositalari, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati asoslari, O'zbekiston Respublikasining sud hokimiyati, saylov tizimi, prokuratura, moliya va kredit, mudofaa va xavfsizlik kabi huquq institutlarini o'zida mujassamlashtirgan huquqiy hujjatdir.

Konstitutsiya jamiyat va davlat tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarini tuzish hamda faoliyatining asosiy prinsiplarini, ularning vakolatlarini, fuqarolarning asosiy huquqlari va burchlarini belgilab beradi. Qolgan barcha qonunlar, kodekslar, qarorlar va farmonlar konstitutsiya negizida va unga muvofiq tarzda qabul qilinadi. Bu esa davlatning har bir normativ hujjati konstitutsiyaga mos kelishi shart ekanligini anglatadi.

Bugun mamlakatimizda kechayotgan demokratik yangilanishlarning yangi bosqichida xalq bilan ochiq muloqotni yo'lga qo'yish, barchaning fikrini bilish, dardini eshitish va haqiqiy hayotga mos bo'lgan xalqchil strategiyani amalga oshirishning hosilasi sifatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan adolat tamoyili kun tartibidagi eng ustuvor masalalardan biri sifatida ilgari surilmoqda.

Konstitutsiya dunyo siyosiy xaritasida yangi suveren demokratik davlat – O'zbekiston Respublikasi qaror topganligini qonuniylashtirdi. Butun jahon ahliga xalqimizning xohish-irodasi bayon qilinib, unda o'zbek davlatchiligini zamonaviy ma'rifiy asoslarda qayta tiklash, tinch-totuv yashash va tinchlikni mustahkamlash, demokratiyani chuqurlashtirish, inson huquqlari va davlat suvereniteti g'oyalariga sodiq qolish, adolatli huquqiy davlat barpo etish, fuqarolar osoyishtaligi hamda milliy hamjihatlikni ta'minlash kabi oliyjanob niyatlar e'lon qilindi. Bir so'z bilan aytganda, konstitutsiya oliy darajadagi qonun sifatida davlatning qiyofasini, uning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzumini, boshqaruvning demokratik printsiplarini, jamiyat rivojlanishining strategik yo'nalishlarini, fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlanganligini, ma'naviy qadriyatlarimiz asoslarini mustahkamlab berdi.

Konstitutsiyada yoshlarga ham tegishli bo'lgan burchlarning mavjudligi ularning huquq va erkinliklari doirasining kengligini inkor eta olmaydi. Asosiy Qonunimizda yoshlar huquq va erkinliklarining bunday keng qamrovda ko'rsatilishi davlatimizning yosh avlodga yaratib bergan ulkan imkoniyatlaridan dalolatdir. Bugungi o'zbek yoshlaridan esa faqatgina a'lo o'qish, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida o'z iqtidor va salohiyatlarini namoyish etish talab etiladi, xolos. Har qanday davlatning yoshlar

siyosatini amalga oshirishidan maqsadi mamlakat iqtisodiy va siyosiy salohiyatini mustahkamlash, davlatchilik asoslarining kelgusi zahiralari yaratish, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy takomillashuvining asosini barpo etishdan iboratdir. Shu sababdan, unib-o'sib kelayotgan yosh avlod Konstitutsiyaning ma'no-mazmunini, u istiqlol yillarida erishilgan ulkan tarixiy yutuq ekanligini anglab olishlari, konstitutsiya biz uchun nafaqat muhim hayotiy qo'llanma, balki g'urur-iftixor, kerak bo'lsa, shu zaminda istiqomat qilayotgan millati, tili, dinidan qat'iy nazar, barcha insonlar uchun mustahkam bir himoya ekanligini his etib yashashlari lozim. Konstitutsiyamizda yoshlar ham jamiyatning boshqa vakillari qatori fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega ekanliklari belgilab qo'yilgan va ular uchun ham vijdon erkinligi to'la kafolatlangan.

O'zbek xalqining siyosiy irodasi, mustaqillikga bo'lgan intilishi, hamda adolatli jamiyat barpo etishdek oliy maqsadini aks ettirgan Konstitutsiyamiz bugungi kunda hayot sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tib, ma'rifiy barkamol insonlar hamjamiyatini qaror toptirishning dasturul-amali bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi xalqiga bayram tabrigi. 07.12.2023.
2. LEX.UZ <https://lex.uz> docs. 30.04.2023. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi